RUS TILINI O‘RGANISHDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Aliyev Diyorbek Zokirjon o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
E-mail diyorbek17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ularning individual qobiliyatlari, motivatsiya, xotira, tafakkur, diqqat kabi psixik jarayonlarning roli, shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati va psixologik yondashuvining ahamiyati yoritiladi. Til o‘rganishda kommunikativ yondashuv, motivatsiyani shakllantirish, ijobiy o‘quv muhitini yaratish va psixologik to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llari haqida ilmiy asoslangan fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: rus tili, psixologik xususiyat, motivatsiya, diqqat, xotira, tafakkur, kommunikativ yondashuv, psixologik muhit, ta’lim samaradorligi.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, jumladan rus tilini bilish har bir mutaxassis uchun zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Rus tili xalqaro ilmiy, madaniy va ijtimoiy muloqotda muhim o‘rin tutadi. Shu bois uni o‘rganish jarayonida nafaqat metodik, balki psixologik omillar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Rus tili - boy tarixga, chuqur madaniyatga ega til. Uni o‘rganish faqat grammatikani bilish emas, balki rus xalqi madaniyati, adabiyoti va tafakkur tarzini tushunishni ham anglatadi. Rus tili o‘zining talaffuzi, so‘z boyligi va ifoda imkoniyatlari bilan boshqa tillardan farq qiladi. Uni o‘rganish menda sabr, e’tibor va tahliliy fikrlashni shakllantiradi. Har bir yangi so‘z yoki ibora men uchun yangi dunyoga eshik ochadi.

Rus tili o‘rganish o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni, tahliliy yondashuvni va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, bu tilni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish uchun ham zarur hisoblanadi.

Til o‘rganish - bu murakkab psixik faoliyat bo‘lib, unda diqqat, xotira, tafakkur, idrok va nutq jarayonlari faol ishtirok etadi. O‘quvchi yangi tilni o‘zlashtirishda sezgi organlari orqali ma’lumotni qabul qiladi, so‘ngra u ongda qayta ishlanadi va nutq shakliga aylanadi. Shu bois o‘qituvchi vizual, audial va kinestetik usullarni uyg‘unlashtirgan holda foydalanishi zarur,lozim[1]. Bugungi kunda o‘quvchi chet tili darslarini o‘zlashtira olmayotgan holatlarni ushbu masala bilan bog‘liq bir qator muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Til o‘rganishning va uni o‘rgatishning psixologik o‘ziga xosligi chet tilidagi matnni idrok etish, chet tilidagi so‘zlarni xotirada saqlash bilan xorijiy til o‘quvchilari chet tilini o‘zlashtirishi jarayonida ularning o‘zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta’minlashning psixologik jihatlarini bilishni talab qiladi. O‘qituvchi xorijiy tilda talabalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganishi, o‘quvchilar aqliy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlaridan xabardor bo‘lishi, talabalarning psixologik taraqqiyotiga faol ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishi ular bilan bo‘ladigan munosabatlar uchun zarur psixologik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi[2].

Xorijiy tilda talabalarning chet tilida mustaqil, erkin fikrlash doirasini kengaytirish, ular bilan suhbatlarni to‘g‘ri tashkil eta olishga ham bog‘liq. O‘quv jarayonini tashkil etish. O‘qitish jarayonini tashkil etar ekan, o‘qituvchi ta’lim tamoyilini qo‘llashi, o‘qitishning psixologik jihatlariga e’tibor berishi va o‘qitish materiali va uslubini o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga moslashtirishi kerak. Tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish jarayonining navbatdagi bosqichi o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi. Materialni yaxshiroq taqdim etish va uni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishi uchun o‘qituvchi ham diqqatni yo‘naltirish jarayoni va berilgan dars materialini o‘zlashtirish jarayoni bilan bog’liq bo‘lgan psixologik nazariya bilan tanishishi kerak. Bundan tashqari, har bir o‘qituvchi uchun o‘quvchilarning diqqatini jamlash juda muhimdir. Buning uchun o‘qituvchi turli xil o‘qitish usullaridan foydalanadi. Shunday qilib, ko‘rgazmali yordamni aniq vaqtda qo‘llash bu holatda katta yordam beradi. O‘qituvchi bir necha daqiqadan so‘ng o‘quvchilarning e’tiborini yo‘qotmaslik uchun g’amxo‘rlik qilishi kerak. Vizual yordamni o‘z vaqtida ishlatish juda muhim, aks holda ta’sir butunlay teskari bo‘ladi. Masalan, dars boshida sinf oldiga osilgan rasm yoki biron bir

stol ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi, chunki o‘quvchilar buni allaqachon ko‘rgan va ularning diqqati bir vaqtning o‘zida to‘planmaydi. Bunday holda, ko‘rgazmali yordamni o‘z vaqtida ishlatmaslik salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Motivatsiya - til o‘rganishning yuragi hisoblanadi. O‘quvchi nimaga bu tilni o‘rganayotganini anglasa, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoq kuchayadi. Ichki motivatsiya shaxsiy qiziqish bilan, tashqi motivatsiya esa baho yoki rag‘bat bilan bog‘liq. O‘qituvchi ichki motivatsiyani rag‘batlantirishi zarur[3]. Motivatsiyani shakllantirishda o‘qituvchining roli beqiyosdir. Yaxshi o‘qituvchi darsni faqat bilim berish emas, balki ilhomlantirish jarayoni sifatida olib boradi. Interfaol metodlar, o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, muloqot mashqlari talabalarda tilga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi[4]. Umuman olganda til o‘rganishda motivatsiya - bu muvaffaqiyat kalitidir. O‘quvchi o‘zida qiziqish, maqsad va ishonchni shakllantira olsa, u har qanday tilni oson o‘zlashtira oladi. O‘qituvchi esa bu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirishi, rag‘batlantirishi va ijobiy psixologik muhit yaratishi zarur. Shunday sharoitda til o‘rganish nafaqat bilim olish, balki o‘zini rivojlantirish yo‘lida katta qadam bo‘ladi

Til o‘rganishda diqqatning barqarorligi muhim. Interaktiv mashg‘ulotlar, o‘yin usullari diqqatni kuchaytiradi. Xotira esa yangi so‘z va grammatikani eslab qolishda asosiy rol o‘ynaydi. Darslarda faol ishtirok eslab qolishni yaxshilaydi.

Til inson tafakkurining eng muhim vositasidir. Tafakkur - bu insonning atrof-muhitdagi hodisalarni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonidir. Til esa bu tafakkurning ifoda shakli, ya’ni inson o‘z fikrini tilda ifoda etish orqali uni boshqalar bilan bo‘lishadi. Shu sababdan, tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog‘langan hodisalar bo‘lib, ularning uyg‘unligi til o‘rganish jarayonida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Rus tilini o‘rganish jarayonida mantiqiy tafakkur rivojlanadi. Gap tuzish, matn tahlili tafakkurni o‘stiradi. Til va tafakkur o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, til tafakkurni shakllantiradi.Tafakkur va til o‘rganish uyg‘unligi psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. O‘quvchi o‘z tafakkurini yangi tildagi fikr tuzilmasiga moslashtirishi uchun motivatsiya, xotira va diqqat kabi psixik jarayonlar muhim o‘rin tutadi.

Psixologik to‘siqlar va ularni bartaraf etish

O‘quvchilar ko‘pincha xatodan qo‘rqish yoki uyalish kabi to‘siqlarga duch keladi. O‘qituvchi do‘stona muhit yaratib, xatolarni muloyimlik bilan tuzatishi kerak. Rolli o‘yinlar, guruh mashg‘ulotlari ishonchni oshiradi.Agarda bola tilni o‘rganishda qanaqadir noqulaylikni his etsa bu ko ‘nikmalarni o‘zlashtirishda juda katta to‘siqlarni keltirib chiqaradi.Bu to‘siqlarni bartaraf etishda umuman mavjud bo ‘lishligiga yo ‘l qo‘ymaslik albatta o‘qituvchidan yaxshi bilim va ko‘nikma yetarli darajada bo‘lishi ayni kun haqiqati o‘raloq qabul qilinadi.ana endi mavjud to ‘siqlar va ularga bo‘ladigan yechimlar haqida bir necha misollar:

Xatodan qo‘rqish:Ko‘pchilik o‘quvchilar rus tilida gapirishdan uyalishadi yoki xato qilishdan qo‘rqishadi. Ular “agar men noto‘g‘ri gapirsam, boshqalar kuladi” degan o‘y bilan o‘z fikrini bildirishdan tiyilishadi. Yechim: Xatolarni o‘rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish kerak. Har bir xato - bu o‘sish va to‘g‘ri variantni o‘rganish imkoniyati. O‘ziga ishonchsizlik:O‘quvchi “men hech qachon rus tilini o‘rganolmayman” degan salbiy fikrni shakllantirsa, bu tilni egallashga katta to‘sqinlik qiladi. Yechim: Har bir kichik yutuqni qadrlash, o‘zini rag‘batlantirish muhim. Kichik gaplar tuzish, oson matnlarni o‘qish orqali o‘ziga ishonchni mustahkamlash kerak. Motivatsiyaning pastligi:Til o‘rganishdagi psixologik to‘siqlarning eng asosiylaridan biri - motivatsiyaning yo‘qligi yoki pasayishi. Yechim: Tilni o‘rganishdan maqsadni aniq belgilash zarur. Masalan, “rus tilini bilsam, kelajakda yaxshi ish topaman” yoki “rus tilida film tomosha qilmoqchiman” kabi maqsadlar motivatsiyani kuchaytiradi. Stress va bosim:Ba’zi hollarda o‘qituvchi yoki sinfdoshlarning bosimi tufayli

o‘quvchi o‘zini noqulay his qiladi. Bu esa fikrni erkin ifoda etish imkonini cheklaydi. Yechim: O‘quv muhitida do‘stona atmosfera yaratish, qo‘llab-quvvatlash muhim. O‘quvchini tanqid qilish o‘rniga, rag‘batlantirish kerak. Til muhitining yo‘qligi:Agar o‘quvchi rus tilida muloqot qilmasa, u o‘z bilimini amalda qo‘llay olmaydi, bu esa o‘zini “bilmayman” degan hisga olib keladi. Yechim: Rus tilidagi filmlar, musiqalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘rganish jarayonini jonlantirish mumkin.

O‘qituvchining psixologik yondashuvi

O‘qituvchining shaxsiyati til o‘rgatishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. U rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi, o‘quvchilarning holatini tushunishi va emotsional muvozanatni saqlashi zarur.O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi ruhiyatini tushunuvchi, uni rag‘batlantiruvchi shaxsdir. Rus tili o‘rganishda ko‘pchilik o‘quvchilar nutqiy xatolardan qo‘rqish, o‘z fikrini erkin aytolmaslik, tilda xatoga yo‘l qo‘yishdan uyalish kabi psixologik to‘siqlarga duch keladi. Shu bois o‘qituvchi o‘quvchining ichki holatini sezib, unga individual yondashishi lozim.O‘qituvchi darsda doim ij

O‘qituvchi darsda doim ijobiy, qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirishi kerak. O‘quvchilarni tanqid qilish o‘rniga, ularning harakatini qadrlash, kichik yutuqlarini ham e’tirof etish muhimdir. Ijobiy emotsional muhit o‘quvchilarda o‘zini erkin tutish va tilda faol muloqotga kirishishga yordam beradi.Har bir o‘quvchining o‘rganish tezligi, psixologik xususiyatlari, tilda fikrlash qobiliyati turlicha. O‘qituvchi buni inobatga olib, kimlargadir ko‘proq og‘zaki mashqlar, kimlargadir esa yozma topshiriqlar berishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarning ichki ishonchini oshiradi va shu yo‘l bilan natijani samadorligini oshirishi mumkin[7].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 2019.
2. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – Moskva: Nauka, 2018.
3. Abdullayeva M. Chet tillarni o‘qitish psixologiyasi. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2021.
4. Zunnunov A., To‘xliyeva N. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. G‘ulomova Z. Til o‘rganishning psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
6. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 2018.